

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Dispers texnogen chiqindilar, mahalliy xom ashyolar asosida energiya va resurs tejamkor serg‘ovak beton bloklar ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: mahalliy xomashyolar va dispers texnogen chiqindilar tarkibi va xususiyatlari o‘rganiladi, ularning fizik-kimyoviy va mineralogik xossalari aniqlanadi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyati baholanadi; serg‘ovak beton bloklar uchun optimal tarkiblar (retseptura) ishlab chiqiladi, bunda texnogen chiqindilarni 40 % gacha to‘ldiruvchi sifatida qo‘llash va sement sarfini 10-15% gacha tejash yoki boshqa mineral komponent o‘rnida qo‘llash imkoniyati asoslanadi; energiya va resurs tejamkor ishlab chiqarish texnologiyasi taklif etiladi; tajriba namunalarining asosiy texnik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xossalari aniqlanadi; laboratoriya va yarim sanoat sharoitida sinovlar o‘tkaziladi, Texnik-iqtisodiy tahlil amalga oshiriladi, Ekologik samaradorlik baholanadi, Normativ va texnologik hujjatlar tayyorlanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida ishlab chiqarish korxonalaridan va yuqori tashkilotdan tegishli xulosalar olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari asosida intellektual mulk obyektlari (ixtiro patenti) uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyanomalar hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi” ning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.